



“CHAYONGUL YOXUD QUYI QISHLOQDAGI QOTILLIK” QISSASIDA TASVIR MAHORATI

Haydavolova Go‘zal Bektemir qizi

Qarshi shahridagi Turon universitetining

Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda qissachilik janrida alohida o‘ringa ega bo‘lgan yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning "Chayongul yoxud quyi qishloqdagi qotillik" qissasi tahlilga olingan. Bunda yozuvchining obrazlardagi psixologik kechinmalarni ochib berish mahorati va jamiyatdagi insonlarni bugungi kundagi xarakterlari ochib beriladi.

Tayanch so‘zlar: pafos, qahramon ruhiyati, psixologik tahlil, konflikt, qissa janri, epik tur.

Qissa janri bugungi kundagi zamonaviy adabiyotdagi eng ilg‘or janrlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ham qissachilik janrida e‘tiborga tushgan asarlar borligi va shunday saviyali asarlar yoza oladigan Xurshid Do‘stmuhammad singari yozuvchilar borligi kitobxonni quvontiradi. Qissa-badiiy adabiyotdagi epik janr turlarida biri. Qissalar hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq xarakter hamda voqelik ko‘lamini qamrab oladi. Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma‘lum bir davri xronikal tarzda yoritiladi; Yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammadning "Chayongul yoxud quyi qishloqdagi qotillik" qissasida ham hayot murakkabliklari keng yoritilgan. Xurshid Do‘stmuhammad qissalarida asosiy g‘oyalar qahramonlar xakteri orqali insonning ko‘ngliga kirib borishi bilan ta’sirlidir.

Xurshid Do‘stmuhammadning "Chayongul yoxud quyi qishloqdagi qotillik" qissasi endigina kurtak ochib kelayotgan bir yoshgina navnihol bir qizning barbod bo‘lib ketgan hayoti va jamiyatdagi insonlar hayotidan iborat. Bu qissada personajlar to‘qnashuvi ziddiyatlari keng ochib berilgan. Asarda asosan Chaman momo oilasi va jamiyat o‘rtasidagi to‘qnashuv keltiriladi, bu esa badiiy adabiyotdagi konflikt tushunchasining yaqqol ko‘rinishidir. Konfliktida yozuvchining dunyoqarashi, voqelikni, hayotni, dunyoni va insonni qanday idrok etishi va tushunishi namoyon bo‘ladi, ichki konfliktida esa qahramonning o‘z burchini his etishi bilan ojiz ruhiy tomoni, hissiy iztiroblari, holati o‘rtasidagi ziddiyat tarzda ko‘rinadi. Xurshid Do‘stmuhammadning "Chayongul yoxud quyi qishloqdagi qotillik" asarida ham aynan qahramonlar ziddiyati ichki kechinmalari to‘laqonli ochib berilgan.

"Chayongul yoxud quyi qishloqdagi qotillik" qissasida asli chayon kim edi Gulshoning opasi Gulgunmi yoki jamiyat? Bir qancha kitobxonlar chayon obrazida Gulgunni ko‘rishlari tabiiy, lekin u yomon inson emasdi, to‘g‘ri erkaklardan nafratlanardi hayoti yaxshi emas edi lekin chayon emasdi. Gulgun ham bir paytlar Gulshodga o‘xshagan.



yosh chiroyli sodda navnihol qiz bo'lgan Gulgunni bu holga jamiyat olib keldi, odamlarning gap so'zi olib keldi. U ajrashmoqchi bo'lganida onasi Chaman momo odamlar nima deydi sendan keyin singling bor demaganida edi u allaqachon ajrashgan hayotini yangitdan boshlagan balki baxtli bo'lib ketgan bo'lardi. Gulshodningtaqdiri ham xuddi shunday agar odamlarning gap sizga qaramasdan o'sha vaqtning o'zida tegishli joylarga arz qilishganda edi aybdor ham o'z jazosini olgan bo'lardi, yo'q biz o'zbeklar bunday qilmaymiz qilolmaymiz chunki bizda uyat o'limdan yomon degan gaplar bor, bizda o'zbek mentaliteti bor shu sababdan biz o'lsak o'lamiz lekin insonlarning gap so'zini ko'tarolmaymiz. Bizning hayotimizni belgilab beradi, yozuvchi bu asarda yozuvchi eng kichik detallargacha aytib o'tadi. Aytadiki, qaniydi Gulshod o'sha ko'chadan o'tmaganda edi, qaniydi Gulgun uyiga ketmasligini avvalroq aytganida edi, Ashur nafsini jilovlaganda edi deya aybdorlik hissini har bir narsaga va voqea hodisaga bog'lab chiqadi. Yo'q aslida aybdor bular emas, aslida bu hammasi taqdiri azal Gulshoning qazoyi qadariga shu narsa yozilgan edi. Kitobxonlarning ko'pchiligi shu qatorda menga ham Gulshodning o'limi yomon ta'sir qildi, chunki asl aybdorlar chetda qolib yosh begunoh qiz o'lib ketdi, nega o'zini o'ldirdi degan savol tug'iladi Keyin o'ylab ko'rilsa, u o'zini bir marta o'ldirdi agar tirik bo'lganida atrofdagilarning gap- so'zi uni ming marotaba o'ldirardi .Chunki atrofdagilarning gapi, jamiyatning gapi bu insonni ich ichidan zaharlab yemiradigan bir chayondir mana asli chayon kim, chayonlar kim...

Asarda pafosni yaqqol ko'rishimiz mumkin asarda his-hayajon, iztirob yozuvchini maftun etgan va butun asarga singib ketgan undagi badiiy tasvirning yo'nalishini belgilab beradigan jo'shqin tuyg'u g'oya his-hayajon aks etgan yozuvchi bu kechinmalarni mahorat bilan ochib bergan.

Xurshid Do'stmuhammad asarlarida konflikt va pafos yetakchilik qiladi buni "Chayongul yoxud quyi qishloqdagi qotillik" qissasida ham to'laonli aks etganini ko'rishimiz mumkin.

Iste'dodli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Chayongul yoxud quyi qishloqdagi qotillik" qissasida jamiyatning bugungi kundagi eng katta muammolaridan birini yoritib bergan, bu muammo ko'pchilik insonlarning gapi bilan yashayotganligini atrofdagilarning gapi insonlarning taqdirini belgilab berayotganligini va Jamiyatdagi haqiqiy chayonlari kim ekanligini bizga oyna kabi ko'rsatgan bu esa shoirning haqiqiy mahorat egasi ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Do'stmuhammad X. "Chayongul yoxud quyi qishloqdagi qotillik". Qissalar. Toshkent. "Sharq" nashriyoti. T.:2011
- 2.Rustamov A. So'z haqida so'z. Yosh gvardiya nashriyoti. T.: 1987
- 3.Rasulova U. XX asr o'zbek qissalari tadriji. "Fan" nashriyoti. T.:2012